TERINI QAYTA ISHLASH IKKILAMCHI MAHSULOTLARI ASOSIDA KOMPOZITSION TARKIBLI HAYVON OZUQALARI OLISH VA ULARNI TIF TN ASOSIDA TASNIFLASH.

[a]Sh.K.Kushnazarova
[a]Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

[b]V.A.Mashrapova
[b]Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qoramol terisi sanoati chiqindilarini qayta ishlash orqali ajratib olinga ikkilamchi mahsulotdan havonlar uchun oqsilga boy ozuqa mahsuloti tayyorlash imkoniyatlari o‘rganilgan. Bunda biologik chiqindilardan foydalanish orqali ekologik muammolarni bartaraf etish va ularni qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Terini qayta ishlash natilasida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulot mezdradan havonlarning ozuqalarini o‘rnini bosuvchi tannar jihatidan arzon va toyimli ozuqa mahsulotlari olishning eng samarali va qtisodiy jihatdan maqbul mahsulotlar tayyorlangan. Har ozuqa mahsulotinig havonlarnig istemol qobilyati va o‘sish va rivojlanishiga tasiri o‘rganilgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu tahlil natijalari asosida, chiqindilarni qayta ishlashda natijasida hosil bol’gan qoldiq mahsulotlardan ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan optimal shart-sharoitlar tavsiya qilingan. Olingan ma’lumotlar biotexnologiya, kimyo sanoati va ekologik qayta ishlash sohalarida amaliyotga joriy etish uchun ahamiyatli hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *qoramol terisi chiqindilari, mezdra havon ozuqalari yog‘lar,proten, gidroliz, harorat, qayta ishlash, ekologik samaradorlik.*

Chorvachilikni rivojlantirishda yuqori oqsilli ozuqalarning ahamiyati katta hisoblanadi. So‘nggi yillarda teri sanoatida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Teri ishlab chiqarish korxonalarida hosil bo‘ladigan qirqimlar, paylar, teri qoldiqlari va boshqa chiqindilar tarkibida ko‘p miqdorda kollagen oqsili mavjud bo‘lib, ulardan hayvonlar uchun ozuqa qo‘shimchalari tayyorlash mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan teri chiqindilarini gidrolizlash orqali yuqori hazm bo‘luvchan oqsil mahsulotlari olish mumkinligi aniqlangan. Gidroliz jarayonida kollagen molekulalari parchalanib, hayvon organizmi tomonidan oson o‘zlashtiriladigan peptidlar hosil qiladi.

Hayvon ozuqalari ishlab chiqarishda teri chiqindilarini don mahsulotlari, vitamin-mineral qo‘shimchalar va boshqa oqsil manbalari bilan aralashtirish orqali kompozitsion tarkibli ozuqalar tayyorlanadi. Bunday ozuqalar tarkibida oqsil miqdori yuqori bo‘lib, chorva mollari mahsuldorligini oshiradi. Teri sanoati chiqindilaridan foydalanish ekologik muammolarni kamaytirishda ham muhim hisoblanadi. Chiqindilarni qayta ishlash natijasida atrof-muhitga tashlanadigan organik moddalar miqdori kamayadi va korxonalarning iqtisodiy samaradorligi oshadi. Hayvon ozuqalarini xalqaro savdoda to‘g‘ri tasniflash muhim ahamiyatga ega. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bo‘yicha hayvonlar uchun tayyor ozuqalar asosan 23-guruhga kiritiladi. Xususan, "hayvonlarni boqish uchun ishlatiladigan tayyor mahsulotlar" 2309 pozitsiyasida tasniflanadi.

TIF TN bo‘yicha mahsulotlarni tasniflashda ularning tarkibi, ishlab chiqarish texnologiyasi va qo‘llanish sohasi asosiy mezon hisoblanadi. Teri chiqindilaridan olingan oqsil gidrolizatlari mustaqil mahsulot yoki ozuqa qo‘shimchasi sifatida tasniflanishi mumkin izohlari. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kollagen asosidagi ozuqa qo‘shimchalari qoramol, parranda va baliqlar ratsionida qo‘llanganda oqsil almashinuvini yaxshilaydi hamda o‘sish sur'atlarini oshiradi.Tajriba qisim. Ozuqa tayyorlash bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Avvalo, xrom bilan ishlov berilmagan mezdra saralanadi. Keyin u yaxshilab yuvilib, kimyoviy moddalardan tozalanadi. Shundan so‘ng yog‘sizlantirish jarayoni o‘tkazilib, mahsulotning saqlanish muddati uzaytiriladi. Navbatdagi bosqich — gidroliz jarayoni bo‘lib, unda kollagen yuqori harorat va bosim ostida parchalanib, hazm bo‘ladigan shaklga keltiriladi. Keyin hosil bo‘lgan massa quritilib, maydalangan holda un ko‘rinishiga keltiriladi. Yakuniy bosqichda esa mahsulot granulalarga aylantirilib, boshqa ozuqa komponentlari bilan aralashtiriladi. Mezdradan olingan ozuqaning asosiy afzalligi — undagi yuqori protein miqdoridir. Quruq modda hisobida bu ko‘rsatkich juda yuqori bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, bunday ozuqa iqtisodiy jihatdan ham foydali bo‘lib, tannarxni kamaytiradi va hayvonlarning mahsuldorligini oshiradi. Masalan, parranda vazn ortishi va tuxum berish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi.[3] Biroq xavfsizlik masalasi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, xrom bilan ifloslanish ehtimoli qat’iy nazorat qilinishi zarur. Ozuqa tayyorlashda faqat toza, xromsiz mezdra ishlatilishi lozim. Tayyor mahsulotdagi xrom miqdori belgilangan me’yorlardan oshmasligi kerak va u albatta laboratoriya tekshiruvlaridan o‘tkazilishi zarur.[4]

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, qoramol terisini qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan mezdra samarali qayta ishlansa, undan iqtisodiy jihatdan foydali, arzon va yuqori oziqaviy qiymatga ega ozuqa mahsulotlari tayyorlash imkoniyati mavjud. Bunday ozuqalar tarkibidagi oqsil va boshqa foydali moddalar hisobiga hayvonlarning o‘sish sur’ati tezlashadi, umumiy rivojlanishi yaxshilanadi hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlari oshadi. Shu bilan birga, charm sanoati chiqindilaridan oqilona foydalanish atrof-muhitga tushadigan yuklamani kamaytirib, ekologik muammolarni yumshatishga xizmat qiladi. Ammo ushbu jarayonni amalga oshirishda barcha texnologik bosqichlarga to‘liq rioya etish, xususan, xom ashyoni tozalash, zararsizlantirish, gidroliz qilish va yakuniy mahsulot sifatini nazorat qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, xavfsizlik talablariga qat’iy amal qilish, zararli moddalar miqdorini me’yor darajasida ushlab turish va tayyor ozuqaning veterinariya talablari asosida tekshirilishi zarur

FOYDALANILHAN ADABIYOTLAR

1. Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnalogiyasi D Xolmirzaev , X.B Yunusov 20-29b

2. Митрофанов Н. С. Технология продуктов из мяса птицы: Учебное пособие. - М.: "КолосС", 2011.- 328 с.

3. Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to’g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-sonli qarori.
4. Nosirov U.N. “Qoramolchilik” Darslik. Toshkent-2001.